

XALQ VA BAXSHILAR O'RTASIDAGI KO'PRIK

G.O'. Axmedova

(Terdu) dotsent, t.f.b.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15734382>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida har ikki yilda o'tkaziladigan xalqaro baxshichilik sa'nati festivali haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shu bilan birga xalqaro baxshichilik sa'nati festivalining milliy qadriyatlarini targ'ib qilishdagi ahamiyat to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: baxshi, doston, terma, repertuar, ustoz, ijod, san'at, voha, xalq, shogird.

O'zbekiston qadimiy va boy og'zaki ijod an'alariga ega mamlakat sifatida baxshichilik san'atini asrlar davomida ardoqlab kelmoqda. Baxshi – bu nafaqat qo'shiqchi yoki shoir, balki xalqning tarixi, dard-u quvonchi, orzu va intilishlarini kuyga solgan so'z san'atkoridir. Aynan shu madaniy xazinani asrash va keng ommaga yetkazish maqsadida yurtimizda turli baxshichilik festivallari o'tkazib kelinmoqda.

Baxshichilik festivallari – bu baxshilar, dostonchilar, sozandalar va xalq og'zaki ijodi vakillarining bir joyga jam bo'lib, o'z mahoratini namoyish etadigan, tajriba almashadigan muhim madaniy tadbir.

Bunday festivallar: Milliy qadriyatlarni targ'ib qiladi, Yosh avlodni og'zaki ijodga qiziqtiradi, Hududlararo madaniy almashinuvga xizmat qiladi, Unutilayotgan dostonlar va epik janrlarni qayta jonlantiradi. 2019-yildan boshlab Surxondaryo viloyatining qadimiy Termiz shahrida o'tkazilayotgan bu festival O'zbekiston miqyosidagi eng yirik baxshichilik tadbirlaridan biridir. Unda nafaqat o'zbekistonlik balki Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Eron, Turkiya kabi davlatlardan kelgan san'atkorlar ishtirok etishdi. II Xalqaro baxshichilik san'ati festivali Nukusda 2021 yil 12–14 sentyabr kunlarda o'tkazildi. Bu festival baxshichilik san'atini respublika va xalqaro darajada targ'ib qilish maqsadida tashkil etildi.

Festivalga 22 davlatdan 100 dan ortiq baxshilar, oqinlar va jirovlar, shuningdek vatandoshlarimiz ishtirok etdi. U YuNESKO, AYSESKO, TURKSOY va qator nufuzli tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Yurtimizda o'tkazilgan eng yirik baxshichilik anjumanlaridan biri sifatida, III Xalqaro baxshichilik san'ati festivali 6–8 may kunlari Sirdaryo viloyati Guliston shahrida tashkil etildi. 40 dan ziyod mamlakatdan saralangan san'atkorlar, baxshi-shoirlar va oqinlar qatnashdi: Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Turkiya, Yaponiya, Koreya, Vengriya va boshqa davlatlardan san'atkorlar ishtirok etdi. IV Xalqaro baxshichilik san'ati festivali — Xivada 2025 yil 26–28 aprel kunlari bo'lib o'tdi. Festival qadimgi Ichanqal'a sahnalaridan birida rasmiy ochildi. Marosimda O'zbekiston Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, hamda YuNESKO va AYSESKO rahbarlari, Turkiya, Ozarbayjon va Turkiy Davlatlar Parlament Assambleyasiga o'z tabriklarini yetkazishdi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoevning tabrigi o'qib eshitirildi. 40 dan ziyod mamlakatdan 200ga yaqin baxshilar, tarixchi va folklorshunos olimlar qatnashdi. Turkiya, Rossiya, Mo'g'uliston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlardan delegatsiyalar ishtirok etdi. «II Turkiy dunyo madaniyati forumi» va «Yangi O'zbekistonda baxshichilik san'ati: zamonaviy tadqiqotlar va istiqbollar» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasida har ikki yilda o'tkaziladigan Baxshilar festivali mamlakatimizning boy madaniy merosini asrab-avaylash, xalq og'zaki ijodi va baxshilik san'atini targ'ib qilishga qaratilgan muhim madaniy tadbirlardan biri hisoblanadi. Ushbu festival nafaqat san'at bayrami, balki yurtimiz tarixi, milliy o'zligimiz va ma'naviy qadriyatlarimizning hayotbaxsh ifodasidir. Baxshilik san'ati – xalq ruhining jonli ifodasi O'zbek baxshilik an'analari asrlar davomida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob madaniy fenomendir.

Baxshilar — xalq orasida hurmat qozongan ijodkorlar bo'lib, ular epik dostonlar, qahramonlik hikoyalari, madhiyalar, tarbiyaviy so'zlar va sevgi taronalarini ijro etish orqali jamiyatga ma'naviy ta'sir ko'rsatishadi. Festivalning mumrespublika miqyosidagi ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oxirgi yillarda madaniyat va san'at sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Baxshilar festivali ham aynan ana shu siyosatning ajralmas qismi sifatida har yili turli hududlarda navbatma-navbat o'tkazib kelinmoqda. Endilikda “Baxshichilik san'ati” tushunchasi YUNESKO orqali butun dunyoda keng targ'ib qilinadi. Endi bu madaniyat yo'qolib ketmaydi, aksincha rivoj topib boradi. Shuni ta'kidlab o'tishni istardimki, xalqaro tashkilotlar kelajak avlodlarga bu madaniy merosni yetkazish va baxshichilik san'atining rivojlanishiga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishi, ularni jahon madaniyati durdonalari qatorida targ'ib qilishi zarur. Albatta, bu jarayon qadamba-qadam, bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi. Baxshichilik san'atining YUNESKO ro'yxatiga kiritilishining barcha mezonlariga mos kelgan bu noyob nomoddiy madaniy meros yer yuzida kamdan-kam xalqlarda mavjud bo'lib, necha ming yillar osha bizgacha bezavol saqlanib, yetib kelgan. YUNESKOning bu qarori Baxshichilik san'atini jahon miqyosida yuksak e'tirofi bo'ldi. O'zbekistonning YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyasi tomonidan tayyorlanib, 2020-yilda YUNESKoga taqdim etilgan bu azaliy qadriyatimiz endilikda xalqaro hamjamiyat e'tiborida rivojlanadi.

Baxshichilik – ikki buyuk daryo, Jayxun va Sayxun oralig'idagi sivilizatsiyalarni yaratish qudratiga ega bo'lgan ulug' ajdodlarimizdan meros. Festival doirasidagi tadbirlar, baxshilarning to'g'ridan-to'g'ri ijro kechalari, ilmiy anjumanlar va seminarlar, yosh baxshilar uchun mahorat darslari va tanlovlar, milliy liboslar va cholg'u asboblari ko'rgazmasi, folklor jamoalari chiqishlari xalq va baxshilar o'rtasidagi ko'priq. Festivalning eng asosiy ahamiyati — xalq bilan baxshilar o'rtasidagi ma'naviy aloqani tiklash va mustahkamlashdir. Baxshilar faqatgina she'r o'qimaydi, balki xalqning qayg'usi, orzusi, tarixiy xotirasi va yuksak or-nomusi targ'ibotchisi sifatida faoliyat ritadilar.

O'zbekiston Respublikasidagi Baxshilar festivali — milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlodga yetkazish, xalq og'zaki ijodiga hurmat uyg'otish va mamlakatimizning boy ma'naviy hayotini yoritishda beqiyos ahamiyatga egadir. Ushbu festival orqali O'zbekiston nafaqat baxshilik an'analari qayta jonlantirimoqda, balki o'zini dunyoga madaniy meros sohasidagi yetakchi davlat sifatida namoyon etmoqda. Ko'plab viloyatlarda Navro'z, Mustaqillik bayrami va boshqa madaniy tadbirlar doirasida baxshilar o'z chiqishlari bilan xalqni xushnud etishadi. Bu esa baxshichilikni xalq orasida ommalashtirishga xizmat qiladi. Baxshichilik festivallari – bu milliy madaniyatimizga bo'lgan hurmatimizning yorqin ifodasidir.

Ushbu festivallar orqali nafaqat o'zimizning qadimiy san'atimizni e'zozlaymiz, balki uni jahon miqyosida tanitish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz. Bugungi kunda baxshichilik – bu o'tmish sadosi emas, balki zamonaviy san'atning muhim bir yo'nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida” 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son qarori.
2. Jumaniyozov A. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. Ergashev A. Qashqadaryo – Surxon vohasidostonchiligi. - T.: Fan, 2008. b 138-142
4. Nurmatov M. Baxshilik an'analari: tarixi va buguni. – T.: “O'zbekiston”, 2012.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2021 yil 15 martdagi “O'zbek baxshilar san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida”gi qarori.
6. Toshpulatov A. Xalq dostonlari va baxshilar ijodi. – Samarqand: SamDU nashri, 2016.